

## 97. 3 sonini ko'paytirish va 3 ga ko'paytirish

Yondosh mavzu:  
volontyorlar.

Ko'paytuvchi, ko'paytma.



-  1. Ikkinchi sinfdagi volontyorlar yetim bolalarga yordam berishga qaror qilishdi va 3 tadan yaxshi o'yinchoq olib kelishdi. Har bir o'quvchining kelishi bilan o'yinchoqlar nechtaga ortadi?

O'quvchilar soni	1	2	3	4	5
O'yinchoqlar soni	3	6			



### 3 ga ko'paytirish jadvali

a	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
a · 3	3	6	9	12	15	18	21	24	27	30

-  2. To'g'ri to'tburchaklarning perimetrlari va yuzlarini toping.

9 cm

5 dm

6 m



-  3. Noma'lumlarning shunday qiymatlarini tanlangki, natijada tengliklar to'g'ri bo'lsin.

$$x \cdot 3 = 24$$

$$18 : t = 6$$

$$n : 3 = 8$$

$$3 \cdot y = 30$$

$$15 : m = 5$$

$$b \cdot 4 = 12$$

-  4. Siniq chiziq uchta bo'g'indan tashkil topgan. Birinchi bo'g'inning uzunligi 2 dm, ikkinchi bo'g'inning uzunligi birinchi bo'g'indan 7 cm qisqa, uchinchi bo'g'inning uzunligi ikkinchi bo'g'inning uzunligidan 90 mm uzun. Butun siniq chiziqning uzunligi nimaga teng?


## 97. 3 sonini ko‘paytirish va 3 ga ko‘paytirish



- 5.** Daftaringizga har bir bo‘g‘inining uzunligi 3 cm ga teng bo‘lgan 4 bo‘g‘inli siniq chiziq chizing. Siniq chiziqning uzunligi nimaga teng?



- 6.** Hamma tomonlari teng bo‘lgan uchburchak teng tomonli uchburchak deb ataladi. Tomoni 6 cm bo‘lgan teng tomonli uchburchakning perimetri nimaga teng?




- 7.** 2-“A” sinfi volontyorlari o‘z sinfdoshlari uchun “Extiyot bo‘ling, yo‘l!” oyinini ishlab chiqishdi. Viktorina uchun ular uchburchak shaklidagi yo‘l belgisini tayyorlab qo‘yishdi. Har bir belgining perimetri nimaga teng?



- 8.** Ijtimoiy yordam – bu tabiiy ofatdan zarar ko‘rganlar uchun to‘plangan oziq-ovqat va dori-darmonlar. 2-sinf o‘quvchilari makaron, yog‘ va konserva olib kelishdi. Ular soni jami qancha?



- 9.** Teng tomonli uchburchakning tomonlari 8 cm ga teng. Bu uchburchakning perimetri nimaga teng?



- 10.** Tenglamlarni yeching.

$$x \cdot 3 = 50 - 20$$

$$24 : z = 16 : 2$$

$$y : 2 = 78 - 69$$

$$563 - t = 5 \cdot 3$$